



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 3 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIysi SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR) .....	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI .....	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI) .....	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI .....	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID .....	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожсамурович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА .....	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI .....	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR .....	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI .....	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	75-82

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	83-96
<i>Abdullahov Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKIOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI .....	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i>	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI .....	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI .....	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldasbayev Azizulloh</i>	
BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH .....	153-158
<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНІ .....	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i>	
OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR .....	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ .....	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i>	
YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	184-193
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i>	
IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'iy INTELLEKTNING INSON SALOHIYATIGA TA'SIRI .....	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i>	
QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i>	
UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH .....	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i>	
ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ .....	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i>	
HAJVİYLIKNING PSIXOLOGİK İJTİMOİY-MADANIY VA ESTETİK XUSUSİYATI .....	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI .....	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i>	
HAKIM TERMİZİYNING FALSAFIY TA'LIMOTI .....	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i>	
SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA	
TEATR SAN'ATINING O'RNI .....	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i>	
IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI .....	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i>	
YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING	
UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI .....	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI .....	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i>	
HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING	
HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI .....	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i>	
IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI .....	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i>	
MA'NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIJ TAJRIBASI .....	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i>	
JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIYASINING ZAMONAVIY TAHLILI .....	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i>	
YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID	
TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI .....	281-286
<i>Ярлакабов Джамишид Мамасултонович</i>	
СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ	
ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	287-291
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID	
LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI .....	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI	
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI .....	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK"	
KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i>	
ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN	
YANGI BADIY SHAKLLAR .....	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i>	
NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i>	
IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI .....	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i>	
HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI .....	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES .....	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i>	
THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC .....	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i>	
ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA) .....	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI .....	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i>	
CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE .....	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i>	
NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE" .....	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i>	
DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT .....	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i>	
EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHЛИLI .....	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i>	
SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI .....	369-372

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i>	
КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА .....	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i>	
К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ .....	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i>	
QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR .....	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i>	
QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI .....	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i>	
KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI .....	400-407

*Ибрагимова Сабина Эркиновна*  
К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ  
СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО-  
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ..... 408-413

*Avezov Dilshod Sadulayevich*  
MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLİSH MASALALARI  
VA UNING XUSUSIYATLARI ..... 414-418

*Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li*  
VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLİSH  
YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI ..... 419-423

*Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li*  
INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK  
BAZASINING ROLI ..... 424-432

*Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich*  
BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI  
TIZIMINI KUCHAYTIRISH ..... 433-442

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna*  
ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI  
QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 443-449

*Raxmatov Otobek Urinbosarovich*  
“JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI” FANINING BO'LAJAK  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI  
TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI ..... 450-455

*Xamroyev Samijon Salimovich*  
SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI  
SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI ..... 456-461

*Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna*  
TALABALARDA INSHONING MAZMUNIY- MANTIQIY BAYON QILINISHIGA  
DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH ..... 462-467

*Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li*  
ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI  
VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI ..... 468-472

*Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna*  
TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHIDLARDAN  
HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI ..... 473-480

*Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,*  
TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA  
ASOSLANGAN YONDASHUV ..... 481-486

*O'tashev Xasan Nematullayevich*  
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI  
SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI ..... 487-492

*Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li*  
BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI  
VA KASBIY FAZILATLARI ..... 493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i>	
O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI .....	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI .....	508-518
<i>Qurbanova Bonu Quvondiq qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KITOFGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i>	
O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI .....	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i>	
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR .....	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i>	
MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH .....	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i>	
USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE .....	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i>	
O'QUVCHILARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI .....	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i>	
JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI .....	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i>	
TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i>	
1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI .....	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i>	
TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	588-593

**Received:** 16 February 2025**Accepted:** 5 March 2025**Published:** 20 March 2025*Article / Original Paper***PEDAGOGICAL STRATEGY FOR PROTECTING STUDENTS FROM INVARIANT AND VARIANT THREATS****Djumayeva Hulkarxon Muhammadjonovna**

Associate Professor

Termez State University,

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

**Abstract.** This article presents ideas on pedagogical strategies for protecting students from invariant and variable threats. The types, manifestations, negative consequences, and essence of invariant and variable threats are also highlighted. Students should possess abilities such as independent thinking, critical analysis, developing immunity to information attacks, and adaptability. By developing pedagogical strategies and implementing them in practice, educational institutions can create a more stable and safe learning environment. This serves not only to protect students from threats but also to shape them as successful individuals in the future. Protecting students from invariant and variable threats is an indicator of society's spiritual well-being and its level of social development. This is because students' moral and ethical behavior, regardless of their sphere of life, influences society.

**Keywords:** invariant and variable threats, spirituality, education and upbringing, spiritual threat, pedagogical strategy, information security.

**TALABALARНИ INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN  
HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI****Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna**

Termiz davlat universiteti dotsenti,

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarni invariantiv va variativ tahdidlardan himoyalashning pedagogik strategiyasi haqida fikrlar keltirilgan. Shuningdek, invariantiv va variativ tahdidlarning turi, ko'rinishlari, salbiy oqibatlari va ularning mazmun-mohiyati yoritib berilgan. Talabalar mustaqil fikrash, tanqidiy tahlil qilish, axborot xurujlariga qarshi immunitet hosil qilish va moslashuvchanlik kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari kerak. Pedagogik strategiyalarni rivojlantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali ta'lim muassasalari yanada barqaror va xavfsiz o'quv muhitini yaratishi mumkin. Bu esa talabalarni nafaqat tahdidlardan himoya qilishga, balki ularning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi. Talabalarni invariantiv va variativ tahdidlardan himoya qilish jamiyatning ma'naviy farovonligi, uning ijtimoiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichi. Chunki talabalarning ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlari hayot sohasidan qat'iy nazar, jamiyatning barcha muammolari va tashvishlarini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** invariantiv va variativ tahididlar, ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, ma'naviy tahdid, pedagogik strategiya, axborot xavfsizligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N72>

**Kirish.** Respublikamizda talaba-yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi, o'qib-o'rganishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Bunday qulay sharoitlar ularning jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk bo'lishlari uchun o'ta muhim ahamiyatga egadir. Albatta, bunga javoban yoshlарimiz ham juda katta natijalarga erishyapti. Hozirgi kunda globallashuv

jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson hayoti uchun xavfli bo'lgan turli xil tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bulardan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali ularning milliy qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahdidlar hisoblanadi.

Ta'lIM-tarbiya jarayonida talaba-yoshlar turli invariantiv va variativ tahdidlarga duch kelmoqda. Invariantiv tahdidlar-doimiy va barqaror bo'lib, ular o'zgaruvchanlikka moyil emas, masalan, axborot xurujlari, ijtimoiy tazyiqlar, mafkuraviy ta'sir va ta'lIM sifatiga bo'lgan tashqi bosim. Bu turdag'i tahdidlar uzoq yillardan beri mavjud bo'lib, ularning ta'siri tizimli va doimiy xarakterga ega. Masalan, axborot xurujlari, har xil psixotrop moddalar iste'moli, ma'naviy tahdidlar, ta'limga bo'lgan global siyosiy va iqtisodiy bosim, tashqi mafkuraviy oqimlarning ta'siri kabi omillar invariantiv tahdidlarga misol bo'la oladi [3; 71-78 b.].

Variativ tahdidlar esa o'zgaruvchan va dinamik bo'lib, texnologik o'zgarishlar, pandemiyalar, iqtisodiy inqirozlar, ekologik muammolar va innovatsion jarayonlar bilan bog'liq. Ushbu tahdidlar doimiy ravishda yangilanib boradi va ularni oldindan bashorat qilish qiyin bo'lishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt va raqamlı texnologiyalarning rivojlanishi natijasida an'anaviy ta'lIM usullariga bo'lgan talab o'zgarishi, tabiiy ofatlar va pandemiyalar natijasida masofaviy ta'limga o'tish zaruriyati, mehnat bozorining talablarining keskin o'zgarishi natijasida talabalar yangi kompetensiyalarga ega bo'lishi lozimligi kabi misollar variativ tahdidlarga kiradi [10; 364-370 b.].

Bu tahdidlarning barchasi ta'lIM sifatiga va talabalar rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu boisdan, ularni samarali boshqarish va talabalarni bunday xavflardan himoyalash uchun aniq pedagogik strategiyalar ishlab chiqish zarur. Ushbu maqola aynan shunday strategiyalarni ishlab chiqish va tahlil qilishga bag'ishlanadi. Mazkur yondashuvlar orqali ta'lIM muassasalari talabalarni doimiy va o'zgaruvchan tahdidlardan himoya qilishga tayyorlaydi, ularning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va moslashuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda nazariy va amaliy tadqiqot metodlari qo'llanildi. Nazariy tadqiqot doirasida tahdidlarning mohiyati, ularning ta'lIM jarayoniga ta'siri hamda ularni kamaytirish usullari tahlil qilindi. Shu maqsadda ta'lIM sohasidagi ilg'or tadqiqotlar, ilmiy maqolalar va xalqaro tajribalar o'rganildi.

Amaliy tadqiqot sifatida esa oliy ta'lIM muassasalarida talabalar bilan olib borilgan pedagogik tajriba va kuzatuv natijalari baholandi. So'rovnomalari, intervyular va pedagogik eksperimentlar yordamida talabalar o'rtasida invariantiv va variativ tahdidlarga qarshi immunitet shakllantirish bo'yicha samarali usullar aniqlanib, ularning natijalari tahlil qilindi. Shuningdek, talabalar psixologik barqarorligini oshirish bo'yicha maxsus treninglar tashkil qilinib, ularning natijadorligi baholandi.

**Muhokama va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarni tahdidlardan himoya qilish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Invariantiv tahdidlarga qarshi axborot madaniyatini shakllantirish va psixologik barqarorlikni oshirish muhim bo'lsa, variativ tahdidlarga javoban moslashuvchan ta'lIM strategiyalarini ishlab chiqish lozim.

Bunda ta'lIM muassasalari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishi, talabalar o'rtasida mustahkam ijtimoiy aloqalarni shakllantirishi va ularga turli muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratishi lozim. Shuningdek, pedagoglar

uchun maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish va ularni yangi tahdidlarga tayyorlash ta'lif tizimining mustahkamligini ta'minlaydi.

Talabalar innovatsion va interaktiv o'qitish usullari yordamida tahdidlarga tayyorlanishi, ularga duch kelganida to'g'ri va oqilona qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish zarur. Ularning bilim va ko'nikmalari doimiy ravishda yangilanib borishi uchun ta'lif muassasalarida tizimli o'quv dasturlari joriy etilishi shart.

Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabalar uchun nafaqat ta'lif jarayonida muvaffaqiyatga erishish, balki jamiyatdagi turli tahdidlarga qarshi turish va keljakda barqaror rivojlanish uchun zarur vositadir. Talabalar o'zlarini kreativ va tanqidiy fikrlashga yo'naltirgan holda, har qanday tahdidiga qarshi o'z yechimlarini topa olishadi va ularni hayotga tatbiq etishadi.

Psixologik tayyorgarlik – talabalar stress va bosimga qarshi psixologik barqarorlikka o'rgatilganda, ularning tahdidlarga qarshi immuniteti ortadi. Bu jarayonda psixologik treninglar, individual maslahatlar va muvozanatlari o'quv muhitining yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Stressga chidamlilikni oshirish orqali talabalar noqulay sharoitlarda ham o'zlarini barqaror tutishga o'rganadilar.

Psixologik tayyorgarlikni oshirish uchun talabalar bilan muntazam ravishda stressni boshqarish mashg'ulotlari o'tkazilishi lozim. Ushbu treninglar talabalar o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish, stressni kamaytirish va murakkab vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, meditatsiya va diqqatni jamlash texnikalari, chuqur nafas olish mashqlari, turli muqobil fikrlash usullari orqali talabalar o'zlarining ichki resurslarini yaxshiroq boshqarishga o'rganadilar [1; 123-126 b.].

Bundan tashqari, talabalar uchun psixologik maslahat va qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish muhimdir. Ushbu markazlar orqali talabalar turli muammolar yuzasidan psixologlar bilan maslahatlashish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ularning hissiy va ruhiy barqarorligini ta'minlash uchun maxsus seminarlar, treninglar va jamoaviy mashg'ulotlar o'tkazilishi talab etiladi.

Shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar ham psixologik tayyorgarlik bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Ular talabalarni motivatsiya qilish, ularga bosim ostida qanday yo'l tutish kerakligini o'rgatish va murakkab sharoitlarda ularga yordam berish kabi muhim vazifalarni bajarishlari kerak. Bu orqali talabalarning psixologik jihatdan bardoshli bo'lishiga erishish mumkin.

Axborot xavfsizligi – talabalarga axborot madaniyatini shakllantirish orqali ularni noto'g'ri yoki zararli ma'lumotlardan himoya qilish mumkin. Axborot xavfsizligi bo'yicha talabalar ongida mustahkam bilim shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga soxta axborotlar, kiberxavfsizlik tahdidlari va manipulyatsion ma'lumotlar tarqalishi ortib bormoqda. Shu bois, talabalarga ishonchli axborot manbalarini tanlash, faktlarni tekshirish va ijtimoiy tarmoqlardagi yolg'on ma'lumotlardan himoyalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur [13; 142-160 b.].

Axborot xavfsizligini ta'minlash uchun talabalar quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha o'qitilishi lozim:

Raqamli gigiyena – Kuchli parollar yaratish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, zararli dasturlardan ehtiyyot bo'lish.

Faktlarni tekshirish – Manbalarni tahlil qilish, ishonchli axborot platformalaridan foydalanish, yolg'on xabarlarni tanib olish.

Kiberxavfsizlik – Fishing xurujlaridan himoyalanish, xakerlik urinishlariga qarshi turish, shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik.

Media madaniyat – Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, axborot manipulyatsiyalariga qarshi immunitet shakllantirish, ishonchli va ilmiy tasdiqlangan ma'lumotlarni izlash.

Talabalarning axborot xurujlariga qarshi immunitetini oshirish uchun universitetlar tomonidan maxsus seminar va treninglar tashkil qilinishi lozim. Shuningdek, ta'lim muassasalari o'z axborot tizimlarining xavfsizligini ta'minlashi, talabalar va o'qituvchilarga kiberxavfsizlik bo'yicha bilim berishi zarur.

Moslashuvchan o'qitish metodlari – O'zgaruvchan tahdidlarga javoban zamonaviy texnologiyalar asosida masofaviy va gibrildi ta'lim modellarini joriy etish muhimdir. Talabalar zamonaviy texnologiyalar yordamida mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirishi uchun interaktiv platformalar va masofaviy ta'lim dasturlaridan foydalangan holda o'qitiladi. Shuningdek, talabalar ehtiyojiga mos ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali ularning bilim olish jarayoni yanada samarali bo'lishi ta'minlanadi [4; 279 б.].

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida talabalarga individual yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Moslashuvchan ta'lim strategiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- Masofaviy va gibrildi ta'lim – Pandemiya va boshqa kutilmagan holatlar sababli masofaviy ta'lim jadal rivojlanmoqda. Onlayn platformalar va raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali talabalar mustaqil ravishda bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.
- Shaxsiylashtirilgan o'qitish – Har bir talabaga individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish, o'quv jarayonini uning qobiliyatlari va ehtiyojlariga moslashtirish natijasida ta'lim samaradorligi oshadi.
- Loyiha asosida o'qitish – Amaliyotga asoslangan o'qitish orqali talabalar nazariy bilimlarini mustahkamlab, real hayotdagi muammolarni hal qilish bo'yicha tajriba orttiradilar.
- Gamifikatsiya va interaktiv yondashuvlar – O'qitish jarayoniga o'yin elementlarini joriy qilish orqali talabalar motivatsiyasini oshirish va faolligini ta'minlash mumkin.
- Hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish – Zamonaviy mehnat bozorining talablariga mos ravishda talabalar mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini egallashlari kerak.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – Talabalar o'zaro hamkorlik va mentorlik tizimi orqali pedagoglar va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlansa, ular tahdidlarga bardoshli bo'ladi. Universitetlar va ta'lim muassasalari doirasida psixologik xizmatlar, maslahat markazlari va muammolarni hal qilish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim. Talabalarning o'zaro tajriba almashishlarini rag'batlantirish orqali ular o'zlariga bo'lgan ishonchni oshiradi va o'quv jarayonida yanada faol bo'lishadi.

Talabalar uchun variativ (o'zgaruvchan) va invariativ (o'zgarmas) tahdidlardan himoyalashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi juda muhim rol o'ynaydi. Talabalar, o'zlarining yosh va ta'lim davrida bo'lgani uchun, ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va hatto siyosiy tahdidlarga duch kelishi mumkin. Bu tahdidlarga qarshi kurashishda ijtimoiy qo'llab-

quvvatlash dasturlari talabalarni himoya qilish va ularning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Variativ tahdillar o'zgaruvchan, dinamik bo'lib, talabalar turli omillarga qarab o'zgarishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Iqtisodiy holatning o'zgarishi: Talabalar, ayniqsa, kam ta'minlangan oilalar yoki o'ziga mustaqil bo'lishga intilayotganlar, o'quv davrida moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bunday holatda, davlat yoki o'quv muassasalari tomonidan taqdim etiladigan stipendiyalar, grantlar yoki moliyaviy yordam talabalarga yordam beradi.

2. Ishsizlik va mehnat bozori tahdidi: Talabalar o'qishni tugatgandan so'ng mehnat bozorida raqobatlashishlari kerak. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi, masalan, malaka oshirish kurslari yoki stajirovka imkoniyatlari orqali talabalarni ish bilan ta'minlashga yordam beradi.

3. Tibbiy tahdidlar: Talabalar o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishlari kerak, lekin ba'zan ular o'zlarining tibbiy ehtiyojlarini qondirishga qodir emaslar. Bunday holatda bepul yoki subsidiyalangan tibbiy xizmatlar, psixologik yordam va sog'liqni saqlash dasturlari orqali talabalar o'z sog'lig'iga e'tibor qaratishlari mumkin.

4. Psixologik va stress holatlari: Talabalik davri ko'plab stressli vaziyatlarni yaratishi mumkin, masalan, imtihonlar, o'qish va shaxsiy muammolar, psixologik maslahatlar, mentorlik dasturlari, va stressni boshqarish kurslari talabalar uchun zarur qo'llab-quvvatlash vositalaridir [12; 148-157 b.].

Invariativ tahdidlar o'zgarishsiz, doimiy bo'lib, ular talabalar uchun uzoq muddatli xavf tug'diradi. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy adolatsizlik: Talabalar orasida turli xil ijtimoiy guruuhlar mavjud bo'lib, ba'zi guruuhlar (masalan, kambag'al, etnik ozchiliklar yoki nogironlar) o'z huquqlarini to'liq amalgalashira olmasliklari mumkin. Bu holatda, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi huquqiy yordam, mehnat huquqlari bo'yicha maslahatlar, va iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish orqali talabalar huquqlarini himoya qiladi.

2. Kambag'allik va ta'minot yetishmasligi: Kambag'al oilalardan kelgan talabalar ta'lim olishda ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bepul dars materiallari, arzon turar joylar va ta'lim uchun subsidiyalar orqali ularga yordam beradi.

3. Infratuzilma va texnologiyalarga cheklovlar: Ba'zi talabalar zamonaviy texnologiyalardan yoki ta'lim infrastrukturasiidan foydalananishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, masalan, internet yoki kompyuterlar yetishmasligi. Bunday holatda, ta'lim muassasalari tomonidan kompyuterlar bilan ta'minlash, internetga bepul kirish imkoniyatlari va masofaviy o'qish uchun yordam talabalar uchun juda muhim qo'llab-quvvatlash vositalaridir [8; 52-56 b.].

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning vazifasi talabalar uchun yuqoridagi tahdidlarga qarshi kurashish, ularni ta'lim olish jarayonida qo'llab-quvvatlash va barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashdir. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi talabalarni yakkalanishdan saqlaydi va ularning jamiyatda faol va barqaror a'zolar bo'lishiga yordam beradi. Bularning barchasi talabalarni o'z ta'limi va kelajakdag'i muvaffaqiyatlari uchun kuchli asos yaratadi.

Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – Talabalar mustaqil va tahvilii fikrlash qobiliyatiga ega bo'salar, ular tahdidlarga nisbatan mustahkam himoya mexanizmlarini shakllantira oladilar. Turli muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni ilgari surish va o'z-o'zini

rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali talabalar yanada mustahkam va iqtidorli kadr sifatida shakllanadi [4; 279 6].

Talabalarni variativ va invariativ tahdidlardan himoyalashda kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning o'rni juda katta. Fikrni to'g'ri va samarali tarzda shakllantirish talabalarga nafaqat ta'linda, balki hayotda ham muvaffaqiyatga erishishda yordam beradi. Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabalarni murakkab vaziyatlarga duch kelganda, turli tahdidlarga qarshi kurashishda va yangiliklarni yaratishda yordam beradi.

Kreativ fikrlash – bu yangi, original va samarali yechimlarni topish qobiliyati. Talabalar o'zlarini kreativ tarzda o'ylashga o'rgansalar, ular quyidagi tahdidlardan himoyalanishda muvaffaqiyatlari bo'lishi mumkin:

Variativ tahdidlarga qarshi kreativ yechimlar:

Moliyaviy muammolar: Talabalar, o'zining kreativ fikrlash qobiliyati orqali moliyaviy muammolarni yengish uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin. Masalan, o'z biznesini boshlash yoki turli xil grantlar va stipendiyalar uchun ariza topshirish.

Ishsizlik yoki malaka yetishmovchiligi: Kreativ fikrlash talabalarni yangi va noodatiy yo'llar bilan ish topishda yordam beradi, masalan, yangi sohalarda o'qish yoki o'zini ishga qabul qilish uchun yangi va innovatsion usullarni izlash.

Muammolarni yangi nuqtai nazardan ko'rish: Talabalar o'qishda yoki shaxsiy hayotida duch kelgan muammolarni kreativ fikrlash yordamida yangicha yechimlar topa olishadi.

Invariativ tahdidlarga qarshi kreativ yechimlar:

Kambag'allik va ta'lim imkoniyatlarining cheklanganligi: Kreativ fikrlash imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Masalan, talabalar bepul ta'lim materiallarini onlayn topish, ta'linda o'qishning alternativ yo'llarini izlash yoki mavjud imkoniyatlarni to'g'ri baholash orqali o'zlarining ijtimoiy holatini yaxshilashlari mumkin.

Texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj: Agar talabalar texnologik imkoniyatlardan mahrum bo'lsa, kreativ fikrlash ularni alternativ texnologiyalardan foydalanishga yoki yangi texnologiyalarni yaratish imkoniyatlarini o'ylab ko'rishga undaydi.

Tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotlarni tahlil qilish, muhokama qilish va to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash talabalarni to'g'ri yo'lni tanlashda, faktlarni baholashda va ruxsat etilgan xatolardan saqlanishda yordam beradi. Talabalar tanqidiy fikrlash orqali quyidagi tahdidlardan himoyalanishlari mumkin:

Variativ tahdidlarga qarshi tanqidiy yondashuv:

Ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar: Talabalar o'zlarini jamiyatdagi o'zgarishlarga tanqidiy yondashib, jamiyatdagi muammolarni chuqurroq tahlil qilishlari mumkin. Bu ularni ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlari masalalarida faollik ko'rsatishga undaydi.

Bozor va iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi: Tanqidiy fikrlash talabalarga bozorning qanday o'zgarishini tushunishga va shaxsiy moliyaviy strategiyalarini yanada to'g'ri yaratishga yordam beradi.

Invariativ tahdidlarga qarshi tanqidiy yondashuv:

Ijtimoiyadolatsizlik va ijtimoiy sinfiy farqlar: Talabalar tanqidiy fikrlash orqali o'zlarining ijtimoiy holatlarini chuqurroq tahlil qilishlari va jamiyatdagi tizimli muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyatlarni boshlashlari mumkin.

Sog'liqni saqlash tizimidagi muammolar: Talabalar tanqidiy fikr yordamida sog'liqni saqlash tizimining zaif tomonlarini tahlil qilishi va ularning o'z sog'liqni saqlash ehtiyojlarini

yaxshiroq qondirish uchun yangi va samarali yondashuvlarni taklif qilishi mumkin [7; 356-361 b.].

Kreativ va tanqidiy fikrlashning rivojlanishi talabalar uchun quyidagi afzallikkarni yaratadi:

- Moslashuvchanlik: Talabalar o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashib, yangi va noan'anaviy yechimlar topa olishadi.
- Innovatsion fikrlar: Yangi g'oyalarni yaratish va muammolarga yangi yondashuvlar kiritish orqali talabalarning professional va shaxsiy rivojlanishi tezlashadi.
- Qaror qabul qilish qobiliyati: Tanqidiy fikrlash talabalarni to'g'ri va asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi, bu esa ularni qiyin holatlarda tez va samarali harakat qilishga imkon beradi.
- Ijtimoiy faollik: Talabalar jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy masalalarni tahlil qilish orqali o'zlarini faollikka undashadi va jamiyatni yaxshilash yo'lidagi tadbirlarda ishtirok etishga intilishadi.

**Xulosa.** Talabalarni invariantiv va variativ tahdidlardan himoya qilish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Invariantiv tahdidlarga qarshi axborot xavfsizligi va mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash talab qilinadi, variativ tahdidlarga esa moslashuvchan yondashuvlar orqali javob berish zarur. Ta'lim muassasalari talabalarni har ikki turdag'i tahdidlarga tayyorlash uchun pedagogik innovatsiyalarni joriy etishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'quv jarayonlarini optimallashtirishi lozim.

Shuningdek, talabalar mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, axborot xurujlariga qarshi immunitet hosil qilish va moslashuvchanlik kabi qobiliyatlarga ega bo'lishlari kerak. Pedagogik strategiyalarni rivojlantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali ta'lim muassasalari yanada barqaror va xavfsiz o'quv muhitini yaratishi mumkin. Bu esa talabalarni nafaqat tahdidlardan himoya qilishga, balki ularning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Иванов В.М., Хагай В.С., Твердякова Л.В.. Психолого-педагогическая безопасность современной образовательной среды. Мир науки, культуры, образования. № 2 (93) 2022. 123-126.
2. Nazarov Q. "Ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar". – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2021.
3. Djumayeva, X. M. (2024). Invariantiv tahdidlar va ularning ko'rinishlari. Inter education & global study, (2), 71-78.
4. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, metodistlar, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma) -T.: 2013. -279 b
5. Фридман Л. М. "Психологическая безопасность личности". – Санкт-Петербург: Питер, 2018.
6. Юсупов А. "Информационная безопасность в образовательной среде". – Тошкент: Университет, 2022.
7. Джумаева, X. (2023). "Внутренние угрозы, негативно влияющие на духовность студентов". Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари, 3(8). 356-361.
8. Yunusova G. "Ijtimoiy pedagogikada xavfsizlik omillari". – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. 52-56.

9. Джумаева, Х. (2024). Методика обучения единицам длины и измерения поверхности в начальном образовании. *Interpretation and researches*, 2(24).
10. Джумаева, Х. М. (2024). Критерии и показатели защиты студентов от различных угроз. *World of Scientific news in Science*, 2(3), 364-370.
11. Nizomova R.A. "Talaba-yoshlarning internet tarmog'idan foydalanishida axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash: muammo va yechimlar". *Zamonaviy ta'limgaz*. 2021, 2 (99), 30-36.
12. Фомина Т.Г., Филиппова Е.В., Бурмистрова-Савенкова А.В., Моросанова В.И. "Стресс в образовательной среде и его влияние на академическую успешность и психологическое благополучие обучающихся". *Национальный психологический журнал*. 2024. Т. 19, № 4. 148-157.
13. Кисляков П.А. Меерсон А.-Л.С. "Устойчивость личности к социокультурным угрозам в условиях цифровой трансформации общества". *Образование и наука*. Том 23, № 9. 2021. 142-160.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 3 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).